
MILLIY KURASH BO'YICHA "BOSH PROKUROR KUBOGI" NING TUMAN BOSQICHI BO'LIB O'TDI

Toshloq tumanida voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, ularni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, kuni-kecha tumandagi 32-sonli umumta'lim maktabida milliy kurash bo'yicha "Bosh prokuror kubogi" musobaqalarining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Musobaqada tuman prokurori Axrorjon Xudoyberganov hamda tuman prokuraturasi mas'ul xodimlari ishtirok etishdi.

Tuman prokurori yurtimizda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirishga qaratilayotgan e'tibor xususida to'xtalib, barcha ishtirokchilarga omad tiladi.

Musobaqa yakunida g'oliblikni qo'lga kiritgan yosh polvonlar munosib taqdirlandilar.

2022-10-29 15:23:30